



TRANSPORT VA AVTOMOBILSOZLIK SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART YO‘LOVCHI TASHISH XIZMATI



“Yo‘lovchi tashish xizmati” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Transport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Yo'lovchi tashish xizmati

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0107



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Yo'lovchi tashish xizmati" kasbiy faoliyati bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, transport korxonalarini va transport infratuzilmasi obyektlarida xodimlarni tanlash, ularning malakasini oshirish, xizmat sifati va mehnat faoliyatini baholash kabi kadrlar boshqaruvi vazifalarini hal etishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan, rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – xizmat ko'rsatish yoki ishlab chiqarish maqsadida resurslar, mehnat va texnologiyalarni birlashtirishga asoslangan faoliyat jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy talablar va xususiyatlarni o'z ichiga olgan kasbiy standart tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy standart nomi, qamrab olingan kasblar, tasdiqlash hujjati va amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – rasmiy ta'limga qo'shimcha yoki muqobil shaklda, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'lim;

yo'lovchi – transport vositasida tashish shartnomasi, chipta yoki boshqa yo'l hujjati asosida tashiladigan shaxs;

chipta – yo'lovchining tashish xizmatidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi qog'oz yoki elektron yo'l hujjati;

elektron chipta – axborot tizimida rasmiylashtiriladigan va QR-kod, identifikator yoki boshqa raqamli rekvizit orqali tasdiqlanadigan yo'l hujjati;

perron – yo'lovchilar transport vositasiga chiqishi, undan tushishi, kutishi yoki yo'nalish bo'yicha harakatlanishi uchun ajratilgan hudud;

perron nazorati – yo'lovchilarning chipta, hujjat, xavfsizlik va tartib talablariga rioya etishini tekshirish hamda yo'lovchi oqimini tartibga solish jarayoni;

bagaj – yo'lovchi bilan birga yoki alohida belgilangan tartibda tashishga qabul qilingan buyumlar;

yukxona – yo'lovchilar bagaji, yuk va buyumlarini vaqtincha qabul qilish, saqlash, qayd etish va topshirish uchun mo'ljallangan xizmat joyi;

yuk kassasi – yuk, bagaj yoki yukxona xizmatlari bo'yicha to'lovlarni qabul qilish, hujjatlarni rasmiylashtirish va hisob yuritish joyi;

kassa intizomi – naqd pul, bank kartasi, QR-to'lov va boshqa to'lov shakllari bo'yicha tushumlarni qabul qilish, qayd etish, saqlash va hisobot berish qoidalari;

yo'lovchi oqimi – belgilangan vaqt va hududda transport xizmatidan foydalanayotgan yo'lovchilar harakati hajmi va yo'nalishi;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi 419-I-sonli Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Avtomobil transporti to'g'risida"gi 674-I-sonli Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi "Transport to'g'risida"gi O'RQ-706-son Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi O'RQ-1006-son Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-94-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi “Davlat avtovokzallari va avtostansiyalarini boshqarish samaradorligini ta’minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 712-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi “Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari bo‘yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 738-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martdagi “Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 116-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentabrdagi “Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 504-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-yanvardagi “Yuk va yo‘lovchilarni tashishda avtotransport vositalariga yo‘l varaqalarini elektron shaklda rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 44-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-369-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 9-oktabrda 1282-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Chipta-hisob va yo‘l varaqalarini to‘ldirish bo‘yicha yo‘riqnoma”.

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirining 2021-yil 25-sentabrdagi 14-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Yo‘lovchi avtovokzallari va yo‘lovchi avtostansiyalari to‘g‘risidagi nizom”.

Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O‘zMSt 641:2025.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2.1).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

TTMM – Tarmoq tarif-malaka ma’lumotnomasi;

ATTO – avtomatlashtirilgan transport to‘lov tizimi operatori;

QR – elektron chipta yoki to‘lovni identifikatsiya qilish uchun qo‘llaniladigan tezkor javob kodi;

ET – elektron chipta;

GPS – global joylashuvni aniqlash tizimi;

YHXT – yo‘lovchi harakati xavfsizligi talablari;

ShHV – shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

| | | |
|----|--|--|
| 1. | Kasbiy standartning nomi: | Yo'lovchi tashish xizmati |
| 2. | Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi: | Yo'lovchilarni, ularning bagaji va yuklarini tashish jarayonida chipta, perron, yukxona va tashkiliy-texnik xizmatlarni xavfsiz, tartibli, sifatli va amaldagi qoidalarga muvofiq ko'rsatishni ta'minlash. |
| 3. | IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf: | <p>H seksiya Tashish va saqlash:</p> <p>49 Quruqlikdagi va quvur transporti</p> <p>49.1 Temir yo'l yo'lovchi transporti</p> <p>49.11 Og'ir yo'lovchi temir yo'l transporti</p> <p>49.11.0 Og'ir yo'lovchi temir yo'l transporti</p> <p>49.12 Boshqa yo'lovchi temir yo'l transporti</p> <p>49.12.0 Boshqa yo'lovchi temir yo'l transporti</p> <p>49.3 Quruqlikdagi boshqa yo'lovchi transporti</p> <p>49.31 Jadvalga muvofiq avtomobil transportida yo'lovchi tashish</p> <p>49.31.0 Jadvalga muvofiq avtomobil transportida yo'lovchi tashish</p> <p>49.39 Boshqa toifalarga kiritilmagan quruqlikdagi yo'lovchi tashishning boshqa turlari</p> <p>49.39.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan quruqlikdagi yo'lovchi tashishning boshqa turlari</p> <p>52 Omborlarga joylashtirish, saqlash va yordamchi transport faoliyati</p> <p>52.2 Transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat</p> <p>52.26 Boshqa transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat</p> <p>52.26.1 Yuk jo'natuvchi yoki qabul qiluvchi nomidan temir yo'l, avtotransport, dengiz yoki havo orqali transportda tashishni tashkil qilish</p> <p>52.26.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan, boshqa transportda tashish bo'yicha yordamchi faoliyat</p> <p>52.3 Tashish sohasida vositachilik xizmati faoliyati</p> <p>52.31 Yuk tashish sohasida vositachilik xizmati faoliyati</p> <p>52.31.0 Yuk tashish sohasida vositachilik xizmati faoliyati</p> <p>52.32 Yo'lovchilarni tashish bo'yicha vositachilik xizmati faoliyati</p> <p>52.32.0 Yo'lovchilarni tashish bo'yicha vositachilik xizmati faoliyati</p> |
| 4. | Kasbiy standartning qisqacha mazmuni: | Ushbu kasbiy standart transport obyektlari, vokzal, avtovokzal, perron, terminal va boshqa yo'lovchi tashish infratuzilmasida chipta tekshirish, chipta sotish, yukxona va yuk kassasi xizmatlari, shuningdek yo'lovchi hamda yuk tashish jarayonini tashkillashtirish bo'yicha kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Standart xizmat ko'rsatish madaniyati, kassa intizomi, elektron chipta va to'lov tizimlari, yuk/bagaj hujjatlari, yo'lovchi oqimi xavfsizligi, perron hududida tartib hamda tashkiliy-texnik |

| | | | |
|----|---|---|----------------------------------|
| | | muvofiqlashtirishga doir mehnat funksiyalari, bilimlar, ko'nikmalar va mas'uliyatni qamrab oladi. | |
| 5. | Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi: | Kasblar kodi va nomi: | TMR dagi malaka darajasi: |
| | | 51122002 Perron nazoratchisi (chipta tekshiruvchi) | 3 |
| | | 52300015 Yuk (yukxona) kassiri | 3 |
| | | 52300003 Chipta kassiri | 3 |
| | | 31155008 Yuk va passajir transportida tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik | 5 |

III. Kasblar funksional kartasi

| Kasblar | | Mehnat funksiyalari | | Mehnat vazifalari | |
|---------|---|---------------------|--|-------------------|--|
| T/r | Kodi va nomi: | Kodi | Nomi | Kodi | Nomi |
| 1 | 51122002-Perron nazoratchisi (chipta tekshiruvchi) | A1.3 | Perron hududida yo'lovchilarni qabul qilish va chipta nazoratini amalga oshirish | A1.01.3 | Yo'lovchilarning chipta, elektron chipta va boshqa yo'l hujjatlarini tekshirish |
| | | | | A1.02.3 | Yo'lovchilarni perron, bekat yoki platforma hududiga xavfsiz yo'naltirish |
| | | A2.3 | Perron hududida tartib, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta'minlash | A2.01.3 | Perron hududida xizmat tartibi va xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish |
| | | | | A2.02.3 | Favqulodda vaziyatlarda yo'lovchilarni ogohlantirish va evakuatsiya harakatlarida ishtirok etish |
| | | A3.3 | Yo'lovchilarga axborot berish, murojaatlar bilan ishlash va xizmat madaniyatini ta'minlash | A3.01.3 | Yo'lovchilarga reys, platforma, yo'nalish va xizmat tartibi bo'yicha axborot berish |
| | | | | A3.02.3 | Yo'lovchilar murojaati, shikoyati va nizoli vaziyatlarni dastlabki ko'rib chiqish |
| | | | | A3.03.3 | Topilgan buyumlar, yo'qolgan chipta yoki noto'g'ri yo'naltirilgan yo'lovchilar bo'yicha choralar ko'rish |
| | | A4.3 | Nazorat natijalarini qayd etish, xizmat hujjatlari va axborot almashinuvini yuritish | A4.01.3 | Chipta nazorati va perron xizmati natijalarini jurnal yoki elektron tizimda qayd etish |
| | | | | A4.02.3 | Dispetcher, kassa, xavfsizlik va navbatchi xizmatlar bilan tezkor axborot almashish |
| | | 2 | 52300015-Yuk (yukxona) kassiri | B1.3 | Yuk, bagaj va yukxona xizmatlarini qabul qilish hamda rasmiylashtirish |
| B1.02.3 | Yukxona va yuk xizmatlari bo'yicha to'lovlarni hisoblash hamda qabul qilish | | | | |
| B2.3 | Yukxona hisobini yuritish, yuklarni saqlash va topshirish jarayonini nazorat qilish | | | B2.01.3 | Yukxona hisobini yuritish va qabul qilingan yuk/bagajni saqlash joyiga joylashtirish |

| | | | | | | | |
|------|--|------|---|---------|--|---------|---|
| | | B3.3 | Mijozlarga yukxona xizmatlari bo'yicha axborot berish, da'vo va qaytarish operatsiyalarini yuritish | B2.02.3 | Yuk yoki bagajni egasiga topshirish va nomuvofiqliklarni rasmiylashtirish | | |
| | | | | B3.01.3 | Mijozlarga tarif, saqlash muddati, tashish sharti va yukxona qoidalari bo'yicha axborot berish | | |
| | | | | B3.02.3 | Yuk yoki bagaj yo'qolishi, shikastlanishi yoki kechikishi bo'yicha dastlabki da'vo ma'lumotlarini qabul qilish | | |
| | | | | B3.03.3 | Yukxona xizmatlari bo'yicha qaytarish, qo'shimcha to'lov va qayta rasmiylashtirish operatsiyalarini bajarish | | |
| | | B4.3 | Kassa intizomi, moddiy javobgarlik va yukxona xavfsizligini ta'minlash | B4.01.3 | Naqd pul, elektron to'lov, blankalar va qat'iy hisobdagi hujjatlarni saqlash hamda hisobga olish | | |
| | | | | B4.02.3 | Taqiqlangan, xavfli yoki maxsus shartli yuklarni aniqlash va xavfsizlik choralarini ko'rish | | |
| | | | | B4.03.3 | Yukxona hududi, saqlash joylari va topshirish-qabul qilish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish | | |
| | | 3 | 52300003-Chipta kassiri | D1.3 | Yo'lovchilarga chipta sotish, bron qilish va yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish | D1.01.3 | Yo'lovchiga qatnov jadvali, tarif va mavjud o'rinlar bo'yicha axborot berish |
| | | | | | | D1.02.3 | Qog'oz va elektron chiptalarni sotish, bron qilish, qaytarish yoki almashtirish operatsiyalarini bajarish |
| D2.3 | Kassa operatsiyalarini yuritish va smena yakuni hisobotlarini rasmiylashtirish | | | D2.01.3 | Naqd, bank kartasi, QR va boshqa elektron to'lovlarni qabul qilish | | |
| | | | | D2.02.3 | Smena yakunida tushum, sotilgan chiptalar va hisobot ma'lumotlarini solishtirish | | |
| D3.3 | Yo'lovchilar murojaatlari, imtiyozlar va xizmat axboroti bilan ishlash | | | D3.01.3 | Yo'lovchilarga qatnov, tarif, imtiyoz va xizmat shartlari bo'yicha maslahat berish | | |

| | | | | | |
|---------|--|------|--|---------|---|
| | | | | D3.02.3 | Imtiyozli, bolali, guruhli va maxsus ehtiyojga ega yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish |
| | | | | D3.03.3 | Chipta savdosi bo'yicha murojaat, shikoyat va nizoli holatlarni dastlabki tartibda ko'rib chiqish |
| | | D4.3 | Bronlash, reys o'zgarishi, qaytarish-almashtirish va kassa xavfsizligi operatsiyalarini bajarish | D4.01.3 | Guruhli, oldindan bron qilingan va maxsus buyurtmalar bo'yicha chiptalarni rasmiylashtirish |
| | | | | D4.02.3 | Reys kechikishi, bekor qilinishi yoki yo'nalish o'zgarishi holatlarida chipta operatsiyalarini bajarish |
| | | | | D4.03.3 | Kassa mablag'lari, blankalar va elektron to'lov xavfsizligini ta'minlash |
| | | 4 | 31155008-Yuk va passajir transportida tashishni tashkillashtirish bo'yicha texnik | E1.5 | Yo'lovchi, yuk va bagaj tashish jarayonlarini rejalashtirish hamda tashkiliy tayyorgarlikni ta'minlash |
| E1.02.5 | Chipta kassasi, yukxona va perron xizmatlari ishini muvofiqlashtirish | | | | |
| E2.5 | Tashish jarayoni, xizmat sifati va xavfsizlik talablariga rioya etilishini monitoring qilish | | | E2.01.5 | Reyslar bajarilishi, yo'lovchi oqimi va xizmat ko'rsatish sifatini monitoring qilish |
| | | | | E2.02.5 | Favqulodda, kechikish va ommaviy yo'lovchi to'planishi holatlarida tashkiliy choralarni muvofiqlashtirish |
| E3.5 | Hujjatlar, hisobotlar va xizmat jarayonlarini tahlil qilish hamda takomillashtirish | | | E3.01.5 | Kassa, yukxona, perron va reys hujjatlari bo'yicha ma'lumotlarni tekshirish va umumlashtirish |
| | | | | E3.02.5 | Xizmat sifatini oshirish va ish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash |
| E4.5 | Elektron axborot tizimlari, kassa va reys ma'lumotlari bilan ishlashni tashkil etish | | | E4.01.5 | Elektron chipta, kassa, yukxona va monitoring tizimlari ma'lumotlarini nazorat qilish |

| | | | | |
|--|--|---|---------|--|
| | | | E4.02.5 | Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar va xizmat ma'lumotlari muhofazasini ta'minlashda ishtirok etish |
| | | E5.5 Xodimlar ishini yo'riqlash, ichki nazorat va xizmat sifatini yaxshilash choralari amalga oshirish | E5.01.5 | Smena xodimlariga xizmat tartibi, xavfsizlik va reys o'zgarishlari bo'yicha yo'riqlash berish |
| | | | E5.02.5 | Kassa, perron va yukxona xizmatlarida ichki nazorat kuzatuvlarini o'tkazish |
| | | | E5.03.5 | Xizmat jarayonlari bo'yicha statistik va tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlash |

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

| | | |
|--|--|-----------------------|
| Kasbning nomi: | Perron nazoratchisi (chipta tekshiruvchi) | |
| Mashg'ulot nomining kodi: | 51122 | |
| TMR bo'yicha malaka darajasi: | 3 | |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar: | Tavsiya etiladi | |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar: | Talab etilmaydi, ammo kamida 1 oy ish joyida amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi tavsiya etiladi. | |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar | <p>Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tish, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish va kassa intizomi bo'yicha yo'riqnomadan o'tish talab etiladi.</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> · yo'lovchilar bilan xushmuomala va madaniyatli muloqot qilish; · rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; · belgilangan vazifalarni xizmat yo'riqnomalari va xavfsizlik talablariga muvofiq bajarish; · pul mablag'lari, blankalar, elektron ma'lumotlar va xizmat hujjatlarining saqlanishini ta'minlash; · nizoli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va belgilangan tartibda harakat qilish; · jamoa bilan hamkorlikda ishlash va o'z vakolati doirasida qaror qabul qilish. | |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar: | 1) boshlang'ich professional ta'lim 2) umumiy o'rta ta'lim + qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik | |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi: | umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki ish joyida o'qitish va amaliy tajriba | |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi: | 3-5 razryadli Perron nazoratchisi (chipta tekshiruvchi) | |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari: | Chipta tekshiruvchi; perron nazoratchisi; yo'lovchilar nazoratchisi; nazorat-kassa xodimi | |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | TMR bo'yicha malaka darajasi: | Kasbning nomi: |
| | 3 | Chipta kassiri |

| Mehnat funksiyalarining tavsifi | | |
|--|---|--|
| Kodi va nomi | Mehnat vazifalari | |
| A1.3 Perron hududida yo'lovchilarni qabul qilish va chipta nazoratini amalga oshirish | A1.01.3 Yo'lovchilarning chipta, elektron chipta va boshqa yo'l hujjatlarini tekshirish | O'qitish natijalari |
| | | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Yo'lovchidan chipta, elektron chipta yoki boshqa yo'l hujjatini qabul qilib, haqiqiylikini tekshiradi. |
| | | 2. Chipta ma'lumotlarini reys, sana, yo'nalish va platforma ma'lumotlari bilan solishtiradi. |
| | | 3. Nomuvofiq yoki shubhali hujjat bo'yicha yo'lovchini belgilangan tartibda mas'ul xodimga yo'naltiradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Elektron chipta va QR-kod ma'lumotlarini tekshirish vositalaridan foydalanish. |
| | | Yo'lovchi hujjatlaridagi asosiy rekvizitlarni tez va aniq solishtirish. |
| | | Nizoli holatlarda xolis, muloyim va tartibli muloqot yuritish. |
| | | Bilimlar: |
| | Yo'lovchi tashish qoidalari va chipta nazorati tartibi. | |
| | Elektron chipta, imtiyozli chipta va yo'l hujjatlari turlari. | |
| | Chipta nomuvofiqligi aniqlanganda xabar berish va rasmiylashtirish tartibi. | |
| | A1.02.3 Yo'lovchilarni perron, bekat yoki platforma hududiga xavfsiz yo'naltirish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Yo'lovchilarni tegishli perron, platforma yoki kutish hududiga yo'naltiradi. |
| | | 2. Yo'lovchilar oqimi zichlashganda harakat tartibini saqlashga ko'maklashadi. |
| | | 3. Bolali, yoshi katta va alohida ehtiyojga ega yo'lovchilarga xavfsiz harakatlanish bo'yicha yordam beradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Yo'lovchilar oqimini kuzatish va tartibli yo'naltirish. |
| | | Xavfsizlik belgilarini tushuntirish va ogohlantirish berish. |
| Turli toifadagi yo'lovchilar bilan xizmat madaniyati asosida ishlash. | | |
| Bilimlar: | | |
| Perron va platformalarda harakatlanish xavfsizligi qoidalari. | | |
| Bekat, perron va platforma hududlarining xizmat sxemasi. | | |
| Yo'lovchilar oqimini boshqarishning asosiy usullari. | | |
| Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Chipta va yo'l hujjatlarini belgilangan tartibda tekshirish natijasi uchun javobgar bo'ladi. | |

| | | |
|--|---|--|
| | | 2. Yo'lovchilarni xavfsiz yo'naltirishda ichki tartib-qoidalarga mustaqil rioya qiladi. |
| | | 3. Aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha navbatchi yoki mas'ul xizmatga o'z vaqtida xabar beradi. |
| A2.3 Perron hududida tartib, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta'minlash | A2.01.3 Perron hududida xizmat tartibi va xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Perron hududida yo'lovchilarning xavfsiz masofada turishini kuzatadi. |
| | | 2. Begona, xavfli yoki tartibga zid harakatlarni aniqlab, mas'ul xizmatga xabar beradi. |
| | | 3. Perron hududidagi ogohlantirish belgilari va xizmat yo'laklaridan foydalanish tartibini tushuntiradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Xavf belgilarini erta aniqlash va baholash. |
| | | Tartib buzilishi holatlarida tezkor muloqot qilish. |
| | | Xizmat hududini kuzatish va axborotni aniq yetkazish. |
| | | Bilimlar: |
| | | Perron xavfsizligi va ichki xizmat tartibi qoidalari. |
| | Xavfli holatlar va ularning oldini olish usullari. | |
| | Navbatchi, dispetcher va xavfsizlik xizmatlari bilan axborot almashish tartibi. | |
| | A2.02.3 Favqulodda vaziyatlarda yo'lovchilarni ogohlantirish va evakuatsiya harakatlarida ishtirok etish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Favqulodda vaziyat belgilarini aniqlaganda belgilangan aloqa kanali orqali xabar beradi. |
| | | 2. Yo'lovchilarga xavfsiz yo'nalish va harakat tartibi bo'yicha ogohlantirish beradi. |
| | | 3. Evakuatsiya vaqtida yo'lovchilar oqimini to'planishsiz va xavfsiz yo'naltirishga ko'maklashadi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Favqulodda vaziyatda o'zini tutish va tezkor qaror qabul qilish. |
| | | Ovozli ogohlantirish va aniq ko'rsatma berish. |
| | | Evakuatsiya yo'nalishlaridan foydalanishni tashkil etish. |
| Bilimlar: | | |
| Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish yo'riqnomalari. | | |
| Evakuatsiya yo'nalishlari va yig'ilish nuqtalari. | | |
| Yong'in, texnik nosozlik va ommaviy to'planish xavflari bo'yicha birlamchi choralar. | | |
| Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Perron hududidagi tartib va xavfsizlik talablariga rioya etilishini doimiy kuzatadi. | |
| | 2. Favqulodda vaziyatda o'z vakolati doirasida tezkor harakat qiladi. | |

| | | |
|---|---|---|
| | | 3. Xavf yoki qoidabuzarlik aniqlanganda navbatchi va xavfsizlik xizmatiga xabar beradi. |
| A3.3 Yo'lovchilarga axborot berish, murojaatlar bilan ishlash va xizmat madaniyatini ta'minlash | A3.01.3 Yo'lovchilarga reys, platforma, yo'nalish va xizmat tartibi bo'yicha axborot berish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Reys jadvali, platforma raqami va yo'nalish bo'yicha mavjud ma'lumotni tekshiradi. |
| | | 2. Yo'lovchiga kerakli xizmat joyi, kassa, yukxona yoki kutish hududini ko'rsatadi. |
| | | 3. Reys o'zgarishi yoki kechikishi bo'yicha rasmiy ma'lumotni yetkazadi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Reys va platforma ma'lumotlarini tez topish. |
| | | Yo'lovchiga sodda va tushunarli ko'rsatma berish. |
| | | O'zbek va zaruratga ko'ra boshqa tillarda xizmat muloqotini yuritish. |
| | | Bilimlar: |
| | | Qatnov jadvali va reys axborotini berish tartibi. |
| | Bekat infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish punktlari joylashuvi. | |
| | Axborot berishda rasmiy manbalardan foydalanish qoidalari. | |
| | A3.02.3 Yo'lovchilar murojaati, shikoyati va nizoli vaziyatlarni dastlabki ko'rib chiqish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Yo'lovchining murojaati mazmunini aniqlashtirib, zarur ma'lumotlarni qayd etadi. |
| | | 2. Nizoli vaziyatda tomonlarni tinchlantirish va tartibni saqlash choralari ko'radi. |
| | | 3. Masala vakolatidan tashqarida bo'lsa, mas'ul xizmat yoki navbatchiga yo'naltiradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Faol tinglash va muammo mazmunini aniqlash. |
| | | Nizoli vaziyatda muloqotni yumshatish. |
| | | Murojaatlarni dastlabki tasniflash va yo'naltirish. |
| Bilimlar: | | |
| Murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish ichki tartibi. | | |
| Xizmat etikasi va nizoli vaziyatlarda muloqot qoidalari. | | |
| Mas'ul xizmatlar vakolati va murojaat yo'nalishlari. | | |
| A3.03.3 Topilgan buyumlar, yo'qolgan chipta yoki noto'g'ri yo'naltirilgan yo'lovchilar | Mehnat harakatlari: | |
| | 1. Topilgan buyumni xizmat jurnalida qayd etish va mas'ul xodimga topshirish choralari ko'radi. | |
| | 2. Yo'qolgan chipta bo'yicha yo'lovchini kassa yoki axborot xizmatiga yo'naltiradi. | |
| | | 3. Noto'g'ri yo'naltirilgan yo'lovchiga to'g'ri platforma, reys yoki xizmat nuqtasini ko'rsatadi. |

| | | |
|--|---|---|
| | bo'yicha choralar ko'rish | Ko'nikmalar: |
| | | Topilgan buyumlarni rasmiylashtirish tartibini qo'llash. |
| | | Yo'lovchiga tezkor yo'nalish va xizmat yechimini taklif etish. |
| | | Xizmat hujjatlarini qisqa va aniq to'ldirish. |
| | | Bilimlar: |
| | | Topilgan buyumlar bilan ishlash tartibi. |
| | | Yo'qolgan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan chipta bo'yicha yo'lovchini yo'naltirish qoidalari. |
| | Bekat xizmatlari o'rtasida axborot almashish tartibi. | |
| | Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Yo'lovchiga aniq, tushunarli va ishonchli axborot beradi. |
| | | 2. Murojaat va shikoyatlarni xolis tarzda dastlabki tartibda ko'rib chiqadi. |
| 3. Xizmat madaniyati, odob-axloq va kommunikatsiya talablariga rioya qiladi. | | |
| A4.3 Nazorat natijalarini qayd etish, xizmat hujjatlari va axborot almashinuvini yuritish | A4.01.3 Chipta nazorati va perron xizmati natijalarini jurnal yoki elektron tizimda qayd etish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Smena davomida tekshiruv natijalari va muhim holatlarni jurnalga kiritadi. |
| | | 2. Elektron tizimda chipta nazorati bo'yicha zarur belgilarni kiritadi. |
| | | 3. Smena yakunida qaydlar to'liqligini tekshiradi va navbatchiga ma'lumot beradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Jurnal va elektron shakllarni to'g'ri to'ldirish. |
| | | Xizmat ma'lumotlarini tartibli saqlash. |
| | | Hisobot uchun zarur ma'lumotlarni ajratish. |
| | | Bilimlar: |
| | Xizmat jurnali va elektron qaydlarni yuritish tartibi. | |
| | Smena hisobotlari uchun zarur ma'lumotlar tarkibi. | |
| | Xizmat ma'lumotlarining maxfiyligi va saqlanishi talablari. | |
| | A4.02.3 Dispetcher, kassa, xavfsizlik va navbatchi xizmatlar bilan tezkor axborot almashish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Reys o'zgarishi, yo'lovchilar oqimi yoki xavfsizlik holati bo'yicha dispetcherga xabar beradi. |
| | | 2. Chipta yoki yo'l hujjati bo'yicha muammo yuzaga kelganda kassa bilan axborot almashadi. |
| | | 3. Tartib buzilishi yoki xavfli holatlarda xavfsizlik xizmatini jalb qiladi. |
| Ko'nikmalar: | | |
| Aloqa vositalaridan xizmat tartibida foydalanish. | | |
| Axborotni qisqa, aniq va muhim jihatlari bilan yetkazish. | | |
| Bir nechta xizmat bilan muvofiqlashtirilgan muloqot yuritish. | | |

| | | |
|--|---|--|
| | | Bilimlar: |
| | | Dispetcherlik, kassa va xavfsizlik xizmatlari bilan aloqa tartibi. |
| | | Xabar berilishi shart bo'lgan holatlar ro'yxati. |
| | Xizmat axborotini tasdiqlash va qayta aloqa qilish qoidalari. | |
| | Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Xizmat jarayonida aniqlangan ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri qayd etadi. |
| | | 2. Axborotni faqat vakolatli xizmatlarga belgilangan tartibda yetkazadi. |
| | | 3. Hujjatlar va elektron yozuvlarning to'liqligi hamda maxfiylikiga rioya qiladi. |
| Texnik va/yoki texnologik talab | | Chipta nazorati uchun elektron tekshirish qurilmalari, QR-kod skaneri, xizmat aloqa vositalari va axborot tablolari bilan ishlash talablari. Perron, bekat va platformalarda xavfsizlik belgilariga, evakuatsiya yo'nalishlari va ichki xizmat yo'riqnomalariga rioya qilish talablari. |

| | | |
|--|--|-----------------------|
| Kasbning nomi: | Yuk (yukxona) kassiri | |
| Mashg'ulot nomining kodi: | 52300 | |
| TMR bo'yicha malaka darajasi: | 3 | |
| Malakani baholashga qo'yiladigan talablar: | Tavsiya etiladi | |
| Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar: | Talab etilmaydi, ammo kassa va yukxona operatsiyalari bo'yicha kamida 1 oy ish joyida o'qitish tavsiya etiladi. | |
| Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar | <p>Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tish, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish va kassa intizomi bo'yicha yo'riqnomadan o'tish talab etiladi.</p> <p>Ishga munosabat va xulq-atvor:</p> <ul style="list-style-type: none"> · yo'lovchilar bilan xushmuomala va madaniyatli muloqot qilish; · rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; · belgilangan vazifalarni xizmat yo'riqnomalari va xavfsizlik talablariga muvofiq bajarish; · pul mablag'lari, blankalar, elektron ma'lumotlar va xizmat hujjatlarining saqlanishini ta'minlash; · nizoli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash va belgilangan tartibda harakat qilish; · jamoa bilan hamkorlikda ishlash va o'z vakolati doirasida qaror qabul qilish. | |
| Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar: | 1) boshlang'ich professional ta'lim 2) umumiy o'rta ta'lim + qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik | |
| Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi: | umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki ish joyida o'qitish va amaliy tajriba | |
| Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi: | | |
| Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari: | Yukxona kassiri; bagaj kassiri; yuk qabul qilish kassiri; yuk xizmatlari kassiri | |
| Boshqa kasblar bilan aloqadorligi: | TMR bo'yicha malaka darajasi: | Kasbning nomi: |
| | 3 | Chipta kassiri |

| Mehnat funksiyalarining tavsifi | | |
|--|--|--|
| Kodi va nomi | Mehnat vazifalari | |
| B1.3 Yuk, bagaj va yukxona xizmatlarini qabul qilish hamda rasmiylashtirish | B1.01.3 Yuk yoki bagajni qabul qilish, tekshirish va yukxona hujjatlarini rasmiylashtirish | O'qitish natijalari |
| | | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Mijozdan yuk yoki bagaj bo'yicha zarur ma'lumot va hujjatlarni qabul qiladi. |
| | | 2. Yukning tashqi holati, qadoqlanishi, belgilanishi va saqlash shartlarini tekshiradi. |
| | | 3. Yukxona kvitansiyasi, yorliq yoki elektron qaydni rasmiylashtiradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Yuk va bagaj ma'lumotlarini hujjatlarga to'g'ri kiritish. |
| | | Yukning qadoqlanishi va tashqi holatini baholash. |
| | | Mijozga qabul qilish tartibini tushuntirish. |
| | | Bilimlar: |
| | | Yukxona xizmatlari va bagaj qabul qilish qoidalari. |
| | Yukxona hujjatlari, kvitansiya va yorliqlar rekvizitlari. | |
| | Saqlashga qabul qilinmaydigan yuk turlari va cheklovlar. | |
| | B1.02.3 Yukxona va yuk xizmatlari bo'yicha to'lovlarni hisoblash hamda qabul qilish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Yuk turi, vazni, hajmi, saqlash muddati yoki xizmat turiga ko'ra to'lovni hisoblaydi. |
| | | 2. Naqd, bank kartasi yoki elektron to'lov orqali mablag' qabul qiladi. |
| | | 3. To'lov hujjati, chek yoki elektron tasdiqnomani mijozga taqdim etadi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Tarif jadvali va to'lov kalkulyatsiyasidan foydalanish. |
| | | Kassa apparati va elektron to'lov vositalarida ishlash. |
| | | Hisob-kitobda xatoliklarni aniqlash va tuzatish. |
| Bilimlar: | | |
| Yukxona xizmatlari tariflari va qo'shimcha to'lovlarni tartibi. | | |
| Naqd va elektron to'lovlarni qabul qilish qoidalari. | | |
| Kassa hujjatlari va fiskal chek rasmiylashtirish talablari. | | |
| Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Yuk yoki bagajni qabul qilishda hujjatlar to'g'riligi va to'lov hisob-kitoblari uchun javobgar bo'ladi. | |
| | 2. Mijoz bilan hisob-kitoblarni kassa intizomi asosida mustaqil bajaradi. | |
| | 3. Nomuvofiqlik yoki xavfli yuk belgilari aniqlanganda mas'ul xizmatga xabar beradi. | |

| | | |
|---|---|---|
| B2.3 Yukxona hisobini yuritish, yuklarni saqlash va topshirish jarayonini nazorat qilish | B2.01.3 Yukxona hisobini yuritish va qabul qilingan yuk/bagajni saqlash joyiga joylashtirish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Qabul qilingan yuk/bagajni jurnal yoki elektron tizimda ro'yxatga oladi. |
| | | 2. Yukni turi, o'lchami va saqlash shartiga ko'ra mos joyga joylashtirishni tashkil etadi. |
| | | 3. Yukning joylashuvi, yorlig'i va topshirish muddatini qayd etadi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Yukxona hisob jurnalini yuritish. |
| | | Yuklarni belgilash, joylashtirish va izlab topish. |
| | | Saqlash muddatlarini nazorat qilish. |
| | | Bilimlar: |
| | | Yukxona hisobini yuritish tartibi. |
| | Yuk va bagajni saqlash shartlari. | |
| | Moddiy javobgarlik va inventarizatsiya qoidalari. | |
| | B2.02.3 Yuk yoki bagajni egasiga topshirish va nomuvofiqliklarni rasmiylashtirish | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Mijozning kvitansiyasi, shaxsini tasdiqlovchi hujjati yoki elektron qaydini tekshiradi. |
| 2. Yukni egasiga topshirib, qabul-topshirish holatini qayd etadi. | | |
| 3. Yuk yo'qolishi, shikastlanishi yoki ma'lumot mos kelmasligi bo'yicha dalolatnoma yoki xabar tayyorlaydi. | | |
| Ko'nikmalar: | | |
| Hujjatlarni yuk ma'lumotlari bilan solishtirish. | | |
| Yukni topshirishda mijoz bilan aniq muloqot qilish. | | |
| Nomuvofiqliklarni rasmiylashtirish uchun ma'lumot yig'ish. | | |
| Bilimlar: | | |
| Yukni egasiga topshirish tartibi. | | |
| Yuk yo'qolishi yoki shikastlanishi bo'yicha dastlabki rasmiylashtirish qoidalari. | | |
| Mijoz ma'lumotlarini tekshirish va maxfiylik talablari. | | |
| Mas'uliyat va mustaqillik: | 1. Qabul qilingan yuk va bagaj hisobining to'liqligi uchun javobgar bo'ladi. | |
| | 2. Yuklarni saqlash joyiga joylashtirish va egasiga topshirish tartibiga rioya qiladi. | |
| | 3. Nomuvofiqliklarni belgilangan tartibda rasmiylashtiradi. | |
| B3.3 Mijozlarga yukxona xizmatlari bo'yicha | B3.01.3 Mijozlarga tarif, saqlash muddati, tashish sharti va yukxona qoidalari | Mehnat harakatlari: |
| | | 1. Mijoz so'roviga ko'ra tarif, muddat va xizmat turini tushuntiradi. 2. Taqiqlangan yoki maxsus shartli yuklar bo'yicha ogohlantirish beradi. |

| | | |
|--|---|---|
| axborot berish, da'vo va qaytarish operatsiyalari ni yuritish | bo'yicha axborot berish | 3. Qo'shimcha xizmatlar, qayta rasmiylashtirish va qaytarish tartibini tushuntiradi. |
| | | Ko'nikmalar: |
| | | Tarif va xizmat shartlarini sodda tilda izohlash. |
| | | Mijoz ehtiyojini aniqlash va mos xizmatni tavsiya etish. |
| | | Savol va e'tirozlarga xizmat etikasi asosida javob berish. |
| | | Bilimlar: |
| | | Yukxona tariflari, saqlash muddati va xizmat turlari. |
| | | Yukxona qoidalari va cheklovlari. |
| | Mijozlarga axborot berish va xizmat madaniyati talablari. | |
| | B3.02.3 Yuk yoki bagaj yo'qolishi, shikastlanishi yoki kechikishi bo'yicha dastlabki da'vo ma'lumotlarini qabul qilish | Mehnat harakatlari: |
